

UDK:338.484

Buxoro davlat universiteti

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası

dotsent, i.f.f.d.,

D.B. O'roqova

d.b.o'roqova @buxdu.uz

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros
xalqaro universiteti turizm kafedrası
mustaqil izlanuvchi (PhD) doktoranti.,

Hakimova Sohiba Halimovnahsohiba@inbox.ru

BUXORO VILOYATIDA MEHMONXONA XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISHINI TA'MINLOVCHI TASHKILY VA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada Buxoro viloyatida mehmonxona xizmatlari bozorini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mavjud infratuzilma, xizmatlar sifati, boshqaruv shakllari va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliy samaradorligi o'rganilgan. Statistik, solishtirma, SWOT va sotsiologik tahlillar asosida aniqlangan muammolar hamda rivojlanish imkoniyatlari asosida, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish, hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash va turizm infratuzilmasini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

Kalit so'zlari: mehmonxona xizmatlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, turizm bozori, xizmatlar sifati, raqobatbardoshlik.

Аннотация В данной научной статье системно проанализированы организационно-экономические механизмы развития рынка гостиничных услуг в Бухарской области. В исследовании изучены существующая инфраструктура, качество услуг, формы управления, практическая эффективность механизмов государственной поддержки. На основе выявленных проблем и возможностей развития на основе статистического, сравнительного, SWOT и социологического анализов разработаны конкретные предложения и рекомендации по внедрению современных управленческих подходов и инновационных технологий. Результаты статьи направлены на повышение качества гостиничных услуг, обеспечение региональной конкурентоспособности, дальнейшее укрепление туристической инфраструктуры.

Ключевые слова: гостиничные услуги, организационно-экономические механизмы, туристический рынок, качество услуг, конкурентоспособность.

Abstract. This scientific article systematically analyzes the organizational and economic mechanisms for the development of the hotel services market in the Bukhara region. The study examines the existing infrastructure, quality of services, forms of management, and the practical effectiveness of government support mechanisms. Based on the identified problems and development opportunities, statistical, comparative, SWOT, and sociological analyses, specific proposals and recommendations for the implementation of modern management approaches and innovative technologies have been developed. The results of the article are aimed at improving the quality of hotel services, ensuring regional competitiveness, and further strengthening the tourism infrastructure.

Key words: hotel services, organizational and economic mechanisms, tourism market, quality of services, competitiveness.

Kirish

2024-yil 3-iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida videoselektor yig'ilishi va sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqot bo'lib o'tdi. Unda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy sayyohlar oqimini oshirish va sohaga oid dolzarb muammolarni bartaraf etish bo'yicha bir qator tashkiliy va iqtisodiy topshiriqlar belgilandi. Yig'ilishda ekstremal turizm bo'yicha alohida dasturni ishlab chiqish, Bo'stonliq, Parkent, Aydarko'l va Mo'ynoq singari hududlarda parashyut, havo dayvingi kabi yo'nalishlarni rivojlantirish taklif qilindi. Poytaxtda zamonaviy akvapark va basseymlar yetishmasligi, bu borada investitsion loyihalarni ko'paytirish zarurligi alohida ta'kidlandi. Tabiiy ko'llar atrofida master-rejalar ishlab chiqish va ularni tadbirkorlikka jalb etish choralari belgilandi. Tibbiy turizmni rivojlantirish uchun "Tibbiy xizmatlar mehmondo'stligi" dasturini yo'lga qo'yish e'lon qilindi. Bu orqali xususiy klinikalar xalqaro sertifikat olish xarajatlari qoplab beriladi, chet ellik bemorlar uchun QQS qaytariladi. Shu bilan birga, xalqaro ko'rgazmalarda qatnashish xarajatlari ham davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Transport va logistik qulayliklarni oshirish maqsadida barcha ichki qatnovlar uchun chiptalarni **kamida 6 oy oldin** tabaqalashgan narxlarda savdoga chiqarish tizimi joriy etiladi. Yagona onlayn platforma orqali samolyot va temir yo'l chiptalarini sotish rejalashtirilmoqda. Turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga qaramasdan jahonda turizm sohasi rivojlanishda davom etmoqda.. Turli tadbirlarda turizm sohasini rivojlantirish yuzasidan kelishuvlar amalga oshirilib, xorijiy turistlarning mamlakatimizga tashrif buyurishi yildan yilga ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Turizmning brend siyosatini shakllantirish uchun "milliy turizm brendi" bo'yicha kontent yaratish tanlovi e'lon qilindi. Bu jarayonga xalqaro blogerlar jalb qilinadi, Toshkent va Xivada xalqaro gastronomik festivallar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Sohada faoliyat yuritayotgan turoperatorlar va mehmonxona boshqaruvchilari uchun QQS qaytarish muddati uzaytiriladi, kichik otellar barpo etishga subsidiya ajratiladi. Ayniqsa, mehmonxonalari yo'q 22 ta tuman uchun oilaviy mehmonxona qurilishiga subsidiya mexanizmlari yo'lga qo'yilishi ta'kidlandi.

O'zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanib, hududiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, tarixiy va madaniy merosga boy Buxoro viloyatida turizm xizmatlariga, xususan, mehmonxona xizmatlariga talab ortib bormoqda. Biroq ushbu sohada hali ham tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati mavjud. Maqolaning dolzarbligi aynan shu jihat bilan belgilanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining jadal rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Turizm infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida mehmonxona xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish zarurati ham ortib bormoqda. Xususan, tarixiy obidalar va boy madaniy merosga ega bo'lgan Buxoro viloyatida ichki va tashqi turistlar oqimi yildan-yilga ortib borayotgani mehmonxona xizmatlariga bo'lgan talabning keskin oshishiga olib kelmoqda.

Mehmonxona xizmatlari bozori ayrim muammolar va cheklovlarga duch kelmoqda. Bular qatoriga xizmatlar sifati va turlarining yetarlicha rivojlanmaganligi, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining sustligi, xususiy sektorning kam faolligi hamda investitsiyaviy muhitning barqaror emasligi kiradi. Shu sababli, mehmonxona xizmatlari bozorini samarali boshqarish va rivojlantirish uchun tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Mazkur maqolada Buxoro viloyati misolida mehmonxona xizmatlari bozorining holati o'rganiladi, mavjud muammolar tahlil qilinadi hamda zamonaviy, samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi

Turizm sohasining strategik tarmoqlaridan biri sifatida mehmonxona xizmatlari bozorini rivojlantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda, ayniqsa, sohani boshqarish, raqobatbardoshlikni oshirish, xizmatlar sifatini

yaxshilash hamda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bilan bog'liq tashkiliy va iqtisodiy yondashuvlar muhim o'rin egallaydi.

Xorijiy adabiyotlarda [Kotler, Bowen, Makens, 2017¹] mehmonxona xizmatlarini boshqarishda marketing strategiyalari, mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlarni taklif qilishning muhimligi qayd etiladi. **Philip Kotler** va hammualliflari mehmonxona xizmatlari sohasida marketing yondashuvlarining ahamiyatini chuqur o'rganib, mijozlar ehtiyojlariga mos xizmatlar ko'rsatish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Porter [1990]² tomonidan ishlab chiqilgan "raqobat ustunligi" nazariyasida xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsiyalar va servis sifati asosiy omillar sifatida ko'riladi. **Porter**ning raqobat ustunligi nazariyasi esa mehmonxona xizmatlarini strategik rivojlantirishda innovatsiyalar, servis sifati va tashkiliy muvofiqlikni asosiy omillar sifatida ko'rsatadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda, **Sattorov S.** o'z maqolasida respublikada mehmonxona xo'jaligining holati, mavjud muammolar va investitsion muhit haqida tahliliy fikrlarni bayon qilgan³. mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishda davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar, kredit siyosati, turizm klasterlarini shakllantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari keng yoritilgan. Shu bilan birga, bu adabiyotlarda hududiy farqlarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan bo'lib, Buxoro viloyati kabi tarixiy hududlarda xizmatlar bozorini mahalliy sharoitlardan kelib chiqib rivojlantirish masalasi to'liq yoritilmagan.

Ba'zi tadqiqotlarda **Karimova M.** esa turizm xizmatlar sifatini oshirish va kadrlar salohiyati haqida fikr yuritib, Buxoro shahridagi mehmonxonalarning servis darajasi va xodimlar malakasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi⁴. **D.O'roqova**, o'z ilmiy ishida mehmonxona xizmatlarini tashkil etishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilgan. mehmonxona xizmatlarining sifati va xodimlar malakasi asosiy rivojlanish omili sifatida qaralgan⁵. Ammo bu ishlarda tashkiliy tuzilma, boshqaruv mexanizmlari va iqtisodiy rag'batlantirish vositalarining kompleks ko'rinishda tahlili yetarli darajada ko'zga tashlanmaydi. Eshtayev A. "Turizm sohasida mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishning marketing strategiyasi" "O'zbekiston mehnat salohiyati: hozirgi holati va undan foydalanish istiqbollari"⁶ maqolasida mehmonxona sohasidagi mehnat resurslaridan samarali foydalanish muammolari yoritilgan. Muallif turizm sohasining mehnat salohiyatini baholashda marketing yondashuvining ahamiyatini ko'rsatib, resurslarni boshqarish, xizmat sifati va iste'molchi ehtiyojlariga moslashtirish orqali bozor raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini asoslab bergan. Ayniqsa, marketing strategiyasi doirasida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar mehmonxona xizmatlari bozorining tashkiliy jihatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mehmonxona xizmatlari bozorining samarali rivojlanishi ko'p qirrali tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni uyg'un qo'llashni talab etadi. Xususan, inson resurslaridan oqilona foydalanish, xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirish soha raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

¹ Kotler, P., Bowen, J. T., Makens, J. C. (2017). *Marketing for Hospitality and Tourism*. Pearson. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/marketing-for-hospitality-and-tourism>

² Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.

³ Sattorov, S. (2020). Mehmonxona xo'jaligi sohasida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish yo'llari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, №2. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

⁴ Karimova, M. (2021). Xizmatlar sifatini oshirishda mehmonxona xodimlarining malakasi. *Turizm va iqtisodiyot jurnali*, №1(12). <https://journals.buxdu.uz/index.php/turizm>

⁵ D.O'roqova. Mintaqaviy turizmning iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri (O'zbekiston turistik xizmatlar bozori misolida) 2024-yil, aprel. № 4-son

⁶ Eshtayev A. "Turizm sohasida mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishning marketing strategiyasi" "O'zbekiston mehnat salohiyati: hozirgi holati va undan foydalanish istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislari to'plami. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2011-yil 20-dekabr.

Bizning fikrimizcha, mehmonxona xizmatlari bozorida barqaror o'sishni ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb ahamiyatga ega:

- ✚ **Inson kapitaliga asoslangan marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish**, bu orqali xizmat ko'rsatish sifati va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini oshirish mumkin;
- ✚ **Xodimlar bilan mijozlar o'rtasidagi muloqot madaniyatini rivojlantirish**, bu esa mijoz sodiqligi va xizmatlarga talab ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi;
- ✚ **Xorijiy davlatlar tajribasi asosida davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish choralari qo'llash**, ya'ni soliq yengilliklari, investitsiya imtiyozlari va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, mavjud ilmiy adabiyotlarda mehmonxona xizmatlari sohasining muhim jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, Buxoro viloyati misolida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga doir kompleks yondashuv hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot va natijalar

Buxoro viloyatida **xizmatlar sohasining** asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari quyidagicha aks etdi, **aloqa va axborotlashtirish** xizmatlari **546,7 mlrd. so'm**, **moliyaviy** xizmatlar **2 899,6 mlrd. so'm**, transport xizmatlari **2 856,9 mlrd. so'm**, avtotransport xizmatlari **2 574,7 mlrd. so'm**, Yashash va ovqatlanish xizmatlari **537,3 mlrd. so'm**, Savdo xizmatlari **4 167,6 mlrd. so'm**, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **262,8 mlrd. so'm**, ta'lim sohasidagi xizmatlar **756,4 mlrd. so'm**, sog'liqni salash sohasidagi xizmatlar **266,5 mlrd. so'm**, ijara xizmatlari **286,8 mlrd. so'm**, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar **284,6 mlrd. so'm**, shaxsiy xizmatlar **318,6 mlrd. so'm**, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar **124,7 mlrd. so'm** va boshqa turdagi xizmatlar **417,8 mlrd. so'm**ni tashkil qildi. Shundan turizm sohasi sektori **2023 yilning yanvar-sentabr oylarida** Buxoro viloyatida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **13 726,3 milliard so'm**ni tashkil etdi, bu 2022 yilga nisbatan **9,3% o'sishni** anglatadi. **2024 yil boshiga kelib**, xizmatlar ko'rsatishda **sayyohlik va mehmonxona sohasi** ulushi ortib, hudud yalpi ichki xizmatlar hajmining **asosiy tarkibiy qismi** sifatida e'tirof etildi.

Mehmonxonalar va joylashtirish vositalari 2023 yilda Buxoro viloyatida **527 ta mehmonxona va joylashtirish obyekti** faoliyat ko'rsatgan. 2024 yil 1-yanvar holatiga ko'ra bu ko'rsatkich **607 taga yetgan**, ularning 212 tasi to'liq xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalar.

Sayyohlar oqimi va xizmatlar sifati ko'rsatkichlari.

2023 yilda viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar soni **3,5 million nafarga** yaqinlashgan (xorijiy va ichki turistlar).

2024 yil boshida bu ko'rsatkich **4 milliondan oshgani** qayd etildi. Shuningdek, xizmat sifati bo'yicha xalqaro talabga javob beruvchi mehmonxonalar (Hilton, Wyndham, Sahid, Zomin Plaza) soni ortdi. Raqamli xizmatlar (onlayn bron qilish, QR-gidlar) kengaytirildi.

Turizm sohasida va mehmonxona xo'jaligida investitsiya va innovatsiyalar holati 2023–2024 yillarda Buxoro viloyatida **turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun 700 mlrd so'mga yaqin investitsiyalar** jalb qilindi.

- ✚ Yangi "oilaviy mehmonxona" loyihalari orqali yuzlab ish o'rinlari yaratildi.
- ✚ Turizm xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha loyiha doirasida 2024 yilda **10 ta mobil ilova** ishlab chiqildi va xizmatga joriy etildi.

Buxoro viloyatida mehmonxona xizmatlari bozori samaradorligini baholash maqsadida, ushbu viloyat Toshkent, Samarqand va Xorazm viloyatlari bilan solishtirildi. Tahlil mezonlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlar tanlandi: Bular-

- ✚ Mehmonxonalar soni
- ✚ Xizmat ko'rsatish daromadi
- ✚ Xizmat sifati va raqamlashtirish darajasi
- ✚ Xorijiy brendlar ishtiroki

Mehmonxona xizmatlari bozori samaradorligini baholash mezonlari**1-jadval**

Viloyat	Mehmon-xonalar soni (2024)	Sayyohlar soni (mln)	Xizmat hajmi (mlrd so'm)	Brend mehmon-xonalar	Raqamli xizmatlar (onlayn bron, QR,CRM)
Buxoro	607	~4,0	14 000+	4+	O'rta daraja
Toshkent	950+	5,5+	18 000+	10+	Yuqori daraja
Samarqand	720	~4,8	16 000+	6+	Yuqori daraja
Xorazm	480	~2,8	10 500	3	Past-o'rta

Ushbu jadvalda Buxoro viloyati mehmonxona xizmatlari soni va sayyohlar oqimi bo'yicha respublikada yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Biroq xizmat ko'rsatishning **raqamlashtirish darajasi** va **xizmat sifati bo'yicha standartlashuv** Samarqand va Toshkent viloyatlariga nisbatan pastroq. Xorijiy brendlarning soni ham nisbatan kam. Bu holat Buxoro viloyatida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Buxoro va Samarqand viloyatlari O'zbekistonning eng mashhur turistik hududlari hisoblanadi. Har ikki viloyat boy tarixiy-madaniy merosga ega bo'lib, yildan-yilga sayyohlar oqimi oshib bormoqda. Ammo ularning mehmonxona xizmatlari bozorini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xizmat sifati, infratuzilma, boshqaruv yondashuvi va raqamlashtirish darajasi jihatidan ular orasida sezilarli farqlar mavjud.

Buxoro viloyatining asosiy kuchli jihatlari — bu boy tarixiy merosi, xorijiy sayyohlar oqimining barqaror o'sishi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy imtiyozlar bilan bog'liq. Viloyatda oilaviy mehmonxonalar soni ortmoqda, bu esa ichki turizmni qo'llab-quvvatlaydi. Shunga qaramay, bu hududda raqamli xizmatlar sust rivojlangan, xodimlarning malakasi yetarli emas, xizmatlar sifati bo'yicha yagona standartlar mavjud emasligi raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, byurokratik to'siqlar xususiy sektor faolligini sekinlashtiradi.

Samarqand viloyatida esa mehmonxona xizmatlari bozori nisbatan rivojlangan. Xalqaro brendlarning keng ishtiroki, zamonaviy turizm infratuzilmasining mavjudligi, xizmatlarning raqamlashtirilganligi va yirik forumlarning muntazam o'tkazilishi bu hududda yuqori darajadagi turizm madaniyati shakllanganidan darak beradi. Biroq bu yerda ham ichki turistlar uchun narxlar nisbatan yuqori, arzon va oilaviy turdagi joylashtirish vositalari yetarli emas. Servis xodimlarining til bilimi va madaniy xizmat ko'rsatish darajasi ayrim hollarda talabga javob bermaydi.

Viloyatda ham mavjud imkoniyatlar to'g'ri yo'naltirilsa, mehmonxona xizmatlari bozorining barqaror o'sishini ta'minlash mumkin. Xususan, xalqaro investitsiyalarni jalb etish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, xizmatlarni standartlashtirish, va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish orqali mavjud zaif tomonlarni bartaraf etish mumkin. Shu bilan birga, ekologik tahdidlar, global iqtisodiy beqarorlik va sifatga emas, son ko'payishiga yo'naltirilgan rivojlanish siyosati xavf tug'dirishi mumkin.

Shu bois, Buxoro va Samarqand viloyatlari uchun maqbul strategik yo'nalish — bu turizm xizmatlarini tizimli ravishda modernizatsiya qilish, raqobatbardosh, barqaror va zamonaviy xizmatlar ko'rsatish orqali xalqaro talab va standartlarga moslashishdan iboratdir. Ana shundagina ushbu hududlar O'zbekistonning turizm industriyasida yetakchi o'rinni egallashda davom eta oladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Buxoro viloyatida mehmonxona xizmatlari bozorini rivojlantirish holatini o'rganish natijasida bir qator tizimli muammolar va mavjud imkoniyatlar aniqlandi. Mehmonxonalar sonining ko'payib borayotgani quvonarli holat bo'lsa-da, ularning sifati va xizmat ko'rsatish darajasi jihatidan jiddiy farqlar mavjud. Jumladan, mavjud mehmonxonalar tarkibida kichik sig'imli, zamonaviy talab va standartlarga javob bermaydigan obyektlar salmoqli o'rin egallaydi. Ayniqsa, xalqaro talablar darajasidagi xizmat ko'rsatish tizimiga ega bo'lgan mehmonxonalar soni yetarli emas. Bu esa xorijiy turistlar uchun qulay infratuzilmaviy muhit yaratilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shuningdek, viloyatdagi mehmonxona xizmatlari sifati hududlar kesimida notekis rivojlangan. Buxoro shahri va tarixiy markazlarda xizmatlar tarmog'i nisbatan kengroq va sifatliroq shakllangan bo'lsa-da, tumanlar va chekka hududlarda bu xizmatlar cheklangan ko'lamda qolmoqda. Bundan tashqari, xizmatlar narx-navo siyosatining barqaror emasligi, ayni bir turdagi xizmatlar uchun turli mehmonxonalarda sezilarli narx tafovutlarining mavjudligi sayyohlar uchun noaniqlik va ishonchsizlik uyg'otadi. Bu holat turistik raqobat muhitini izdan chiqarishi va bozorda ishtirokchilarning o'zaro nomutanosibligini yuzaga keltirishi mumkin.

Yana bir muhim jihat – bu boshqaruv tizimidagi markazlashuvning yuqoriligi. Mehmonxona xo'jaligi sohasida ko'plab tashkiliy qarorlar markaziy darajada qabul qilinib, hududiy sharoitlar, mahalliy ehtiyojlar va tadbirkorlik tashabbuslari yetarli darajada hisobga olinmayapti. Bu holat xususiy sektor vakillarining faol ishtirokini cheklamoqda. Aholi va tadbirkorlar tomonidan tashkil etilayotgan oilaviy mehmonxonalar ko'p hollarda infratuzilma va normativ-me'yoriy yordamdan chetda qolmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xususiy sektor hali to'laqonli bozor subyekti sifatida shakllanmagan va faoliyati institutlashmagan.

Bundan tashqari, davlat tomonidan e'lon qilinayotgan soliq imtiyozlari, kredit resurslari, subsidiyalar kabi qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar amaliyotda mahalliy tadbirkorlarga to'laqonli yetib bormayotgani kuzatilmoqda. Bunga sabab — axborotga yetishmovchilik, hujjatlashtirishdagi murakkab tartiblar, hamda mahalliy hokimiyatlar tomonidan qo'llab-quvvatlov mexanizmlarining yetarli darajada faol ishlatilmasligidir. Bu esa viloyatda mehmonxona xizmatlarini jadal rivojlantirish uchun mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda.

Shunday qilib, Buxoro viloyatida mehmonxona xizmatlari bozorining o'sish sur'atlari ijobiy bo'lsa-da, sifat, narx siyosati, boshqaruv va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish yo'nalishlarida tizimli islohotlarga ehtiyoj mavjud. Mazkur muammolarni hal etish orqali hududning turizm salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Buxoro viloyatida barqaror rivojlanish bosqichiga o'tmoqda Bugungi kunda turizm sohasining strategik tarmoqlaridan biri bo'lgan mehmonxona xizmatlari Ammo mavjud infratuzilma, xizmat sifati va boshqaruv yondashuvlari bo'yicha zamonaviy talablar bilan raqobatlashish uchun tizimli o'zgarishlar zarur. Shu nuqtai nazardan, sohaga zamonaviy tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Birinchidan, **hududiy klasterlar asosida mehmonxonalarni integratsiyalashuvini yo'lga qo'yish** zarur. Bu model orqali bir hududda joylashgan turistik obyektlar, mehmonxonalar, transport, ovqatlanish va ko'ngilochar xizmatlar o'zaro bog'langan holda faoliyat yuritadi. Bunday klasterlashish xizmatlar samaradorligini oshiradi, mehmonlar uchun qulayliklar yaratadi va mahalliy iqtisodiyotda ko'p tomonlama sinergiya hosil qiladi. Shu orqali kichik mehmonxonalar ham yirik tarmoqlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, **soliq va kredit imtiyozlari orqali yangi mehmonxonalarni ochishga rag'batlantirish** mexanizmlari takomillashtirilishi kerak. Ayni paytda mavjud bo'lgan imtiyozlar ko'proq yirik loyihalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularni kichik tadbirkorlar uchun moslash kerak. Soddalashtirilgan kredit olish tizimi, subsidiyalar, boshlang'ich grantlar orqali oilaviy va ekologik mehmonxonalarni rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Uchinchidan, **kichik mehmonxonalarni sertifikatlashtirish va xizmat sifati bo'yicha reyting tizimini yaratish** xizmatlar muvofiqligini ta'minlashda muhim vosita bo'ladi. Maxsus baholash mezonlari asosida har bir mehmonxonaning gigiyena, xavfsizlik, xizmat sifati, mijozlar bahosi kabi ko'rsatkichlari ochiq reyting tizimida e'lon qilinishi raqobatni oshiradi va sayyohlar ishonchini mustahkamlaydi. Bu tizim davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ishonchli axborot almashinuvi mexanizmini yaratadi.

To'rtinchidan, **raqamli texnologiyalarni keng joriy etish** bugungi global turizm muhitining ajralmas qismidir. Buxorodagi mehmonxonalarda onlayn bronlash tizimlari, mehmonlar uchun mobil ilovalar, mijozlar bilan ishlashda CRM (Customer Relationship Management) tizimlarining joriy etilishi mehmonxona faoliyatini avtomatlashtiribgina qolmay, xizmat sifati va mijozlar sadoqatini ham oshiradi.

Beshinchidan, **kadrlar tayyorlash tizimini mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish** orqali xizmat sifatini tubdan yaxshilash mumkin. Mehmonxona xo'jaligi xodimlari uchun qisqa muddatli amaliy kurslar, mahalliy dialekt, madaniyat va xizmat etikasi bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil etish zarur. Bu mehmonlar bilan samarali muloqot o'rnatish, xizmatlar individualizatsiyasini oshirish va professional imidjni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Buxoro viloyatida mehmonxona xizmatlari bozorining o'sish sur'atlari ijobiy bo'lishiga qaramay, uning sifat darajasi, boshqaruv mexanizmlari va raqobatbardoshligi jihatidan hali ham tizimli muammolar mavjud. Xizmatlar sifati hududlar kesimida notekis, narx-navo siyosati barqaror emas, boshqaruvning markazlashganligi esa xususiy sektor faolligini cheklab qo'ymoqda. Bundan tashqari, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan iqtisodiy imtiyozlar amaliyotda tadbirkorlarga yetib bormayotgani turizm infratuzilmasini kengaytirishda to'siq bo'lmoqda.

Maqolada ilgari surilgan takliflar – hududiy klasterlashuv, kichik mehmonxonalarni qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, xizmat sifati bo'yicha reyting tizimini yaratish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish – sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishda muhim yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi. Xususan, xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish, xizmatlarning standartlashtirilgan va innovatsion asosda rivojlanishini ta'minlash Buxoro viloyatida barqaror va raqobatbardosh mehmonxona xo'jaligi tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Shu asosda, Buxoro viloyatida mehmonxona xizmatlari bozorini rivojlantirish bo'yicha kompleks tashkiliy-iqtisodiy yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur. Bu esa nafaqat hududiy turizm salohiyatini ro'yobga chiqaradi, balki O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi o'rnini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kotler, P., Bowen, J. T., Makens, J. C. (2017). *Marketing for Hospitality and Tourism*. Pearson. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/marketing-for-hospitality-and-tourism>
2. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.
3. Sattorov, S. (2020). Mehmonxona xo'jaligi sohasida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish yo'llari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, №2. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
4. Karimova, M. (2021). Xizmatlar sifatini oshirishda mehmonxona xodimlarining malakasi. *Turizm va iqtisodiyot jurnali*, №1(12). <https://journals.buxdu.uz/index.php/turizm>
5. O'roqova, D. B. (2024). Mintaqaviy turizmning iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri (O'zbekiston turistik xizmatlar bozori misolida). *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(4).
6. Eshtayev A. "Turizm sohasida mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishning marketing strategiyasi" "O'zbekiston mehnat salohiyati: hozirgi holati va undan foydalanish istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislari to'plami. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2011-yil 20-dekabr.
7. D.B. O'roqova. Turizm sohasidagi innovatsion faoliyatni baholash algoritmi "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №5(19) 2024
8. Bahridinovna, O. R. D. (2025). TURIZM SANOATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SMART TURIZM PLATFORMALARINING SAMARADORLIGI. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (10), 917-926.
9. Qodirov, A., Urakova, D., Amonov, M., Masharipova, M., Ibadullaev, E., Xolmurotov, F., & Matkarimov, F. (2024). The dynamics of tourism, economic growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan: an ARDL approach. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 14(6), 365-370.
10. Bahridinovna, O. R. D. (2025). ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING VA BRENDING STRATEGIYALARINING O'RNINI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 44(1), 160-163.